

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ..... | 10 |
| Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли | |
| STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI | 18 |
| Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna | |
| ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА..... | 26 |
| Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович | |
| МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ | 35 |
| Габбарова Ильмира Володиевна | |
| BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH..... | 41 |
| Amirov Shavkat Rahmatullayevich | |
| ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ | 48 |
| Усманова Азиза Баходировна | |
| PEREGONDAGI HARAКATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH..... | 53 |
| Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li | |
| INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 62 |
| Alimova Dilafro'z Tohir qizii | |
| HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) | 68 |
| Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi | |
| QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR..... | 67 |
| Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror | |
| O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI .. | 74 |
| Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi | |
| INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH..... | 82 |
| Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li | |
| IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI..... | 89 |
| Muxtorova Shaxlo Farxodovna | |
| O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH..... | 101 |
| Qo'ziboyev Behzod Hamidovich | |
| KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY | 106 |
| Sultanova Kamila Mukhtorali kizi | |
| SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH | 111 |
| Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li | |



| | |
|--|-----|
| MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR | 117 |
| Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna | |
| TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO‘P O‘LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI | 123 |
| Turdikulova Moxira Maxmasharifovna | |
| KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI | 127 |
| Kaxorova Zamira Safaraliyevna | |
| YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO‘Y BERISHI MUMKIN BO‘LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI | 132 |
| Dehqonov Oyatillo Mansurbek o‘g‘li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich | |
| VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH... | 143 |
| Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg‘ashova Madina, Jo‘rayev Muhiddin | |
| JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI..... | 147 |
| Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E. | |
| KORXONALARDA “TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH” KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI | 151 |
| Mamasoliyev G‘ayratbek Maxamadyusupovich | |
| HUDUDIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO‘LLARI..... | 156 |
| Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna | |
| PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO‘SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH | 161 |
| Yusupova Feruza Yo‘ldoshevna | |
| AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O‘RNI | 166 |
| Irgashev Anvar Farxodovich | |
| XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI..... | 173 |
| Raxmankulov Sherzod Shokirovich | |
| ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР | 178 |
| Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы | |
| RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI | 184 |
| O‘tbosarov Abrorbek Adxamjon o‘g‘li | |
| DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH..... | 189 |
| Xamidova Zarifa Urol qizi | |
| AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI..... | 196 |
| Ro‘zmetov Mansur | |
| O‘ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO‘LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI..... | 200 |
| Shaydulova Marjona Alisher qizi | |
| KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO‘RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI..... | 205 |
| Rizoyev Farrux Hikmatilloevich | |
| NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI..... | 210 |
| Turaboev Ibroxim Ismoil o‘g‘li | |
| ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG‘DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 215 |
| Komilova Nodira Abdirahmon qizi | |



| | |
|--|-----|
| СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ | 225 |
| Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ..... | 231 |
| Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING | 236 |
| Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH | 241 |
| Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI..... | 248 |
| Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI..... | 255 |
| Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI..... | 263 |
| Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI..... | 268 |
| Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI | 272 |
| Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI..... | 278 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILiyATIGA YANGICHA YONDASHUV..... | 283 |
| Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELLARI..... | 290 |
| Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI | 293 |
| Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI | 298 |
| Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI | 303 |
| Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI..... | 308 |
| Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 312 |
| Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI | 317 |
| Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra | |



| | |
|--|-----|
| OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH..... | 323 |
| Primova Nigora Ikrom qizi | |
| GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR | 331 |
| Raxmankulov Sherzod Shokirovich | |
| ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI.. | 337 |
| Aripov Ulug'bek Bahodirovich | |
| KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI..... | 341 |
| Xakimov Akbar Anvarovich | |
| FOTOLEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI..... | 344 |
| Majidova Maxliyo A'zam qizi | |
| ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH | 354 |
| Komilova Nodira Abdirahmon qizi | |
| STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV)..... | 362 |
| Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova | |
| ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES..... | 367 |
| Sanemkhan Abdullaeva | |
| UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI | 375 |
| Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li | |
| PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH | 379 |
| Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin | |
| ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА..... | 386 |
| Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек | |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 391 |
| Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li | |
| EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI..... | 397 |
| Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi | |
| MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI | 403 |
| Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna | |
| EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI..... | 407 |
| Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi | |
| XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI | 411 |
| Karimova Shaxnoza O'ktamovna | |
| TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI..... | 418 |
| Ruzibayeva Nargiza Xakimovna | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH | 423 |
| Xalimov Shaxboz Xalimovich | |
| AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI..... | 427 |
| Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich | |



| | |
|--|-----|
| MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT..... | 430 |
| Utkirova Mamura Faxriddin qizi | |
| HUDUDIY TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI | 436 |
| Isakov Axmadali Esanbayevich | |
| MINTAQAVIY OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURSLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH | 444 |
| Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li | |
| XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI | 452 |
| Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi | |
| DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI | 461 |
| Sharapov Umidjon Shavkatovich | |
| ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI | 471 |
| Berdiyeva Dilfuza Axatovna | |
| NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKT LARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI | 477 |
| Turayev Abduvoxid Kuldashevich | |
| INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI | 483 |
| Alimova Dilafro'z Tohir qizi | |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI | 488 |
| Suvonov Ibrohim Izbosarovich | |
| QORAKO'L TERI JINGALAKLARINING TAKRORLANMAS KO'RINISHI VA XUSUSIYATLARI | 492 |
| Hakimova Sh.Q., Azimov J.Sh., Farmonov F.F. | |



ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI

Berdiyeva Dilfuza Axatovna

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, professori

E-mail: dili01.07@mail.ru

ORCID: [0000-0003-2455-385X](https://orcid.org/0000-0003-2455-385X)

Annotatsiya. Mazkur maqolada uy-joy fondini boshqarishni tashkil etishda boshqaruv servis kompaniyalari tomonidan aholining ehtiyoj va talablariga mos boshqaruv xizmatlari, shuningdek, zamonaviy qo'shimcha hamda yordamchi servis xizmatlarini taqdim etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi yoritilgan. Tadqiqot ishida uy-joy fondi tizimidagi mavjud muammolar xorijiy va mahalliy ilmiy-amaliy tajribalar asosida tahlil qilinib, ularni har tomonlama o'rganish hamda samarali boshqaruv yechimlarini aniqlash uchun maxsus modeldan foydalanish taklif etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy servis kompaniyalari, tannarx, boshqaruv xizmatlari, ko'p kvartirali uy-joylar, an'anaviy kalkulyatsiya, ABC modeli, Time-Driven TD-ABC modeli.

Аннотация. В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем современности — предоставление управляющими сервисными компаниями услуг по управлению жилищным фондом, соответствующих потребностям и требованиям населения, а также современных дополнительных и вспомогательных сервисных услуг. В исследовании на основе зарубежного и отечественного научно-практического опыта проанализированы существующие проблемы жилищного фонда и предложено использование специальной модели для их всестороннего изучения и определения эффективных управленческих решений.

Ключевые слова: современные сервисные компании, себестоимость, управленческие услуги, многоквартирный жилой дом, традиционная калькуляция, модель ABC, модель Time-Driven TD-ABC.

Abstract. This article discusses one of the pressing issues of today: the provision of management services by housing management service companies in accordance with the needs and demands of the population, as well as modern additional and auxiliary service solutions. The study analyzes existing problems in the housing fund system based on foreign and domestic scientific and practical experience and proposes the use of a special model for their comprehensive assessment and for identifying effective management solutions.

Keywords: modern service companies, cost, management services, multi-apartment housing, traditional costing, ABC model, Time-Driven TD-ABC model.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining jahon bozori savdosida ishtirok etishining hozirgi sharoitida, turar-joy ko'chmas mulkini sotib olish moliyaviy vositaga aylangan bir paytda, uy-joy bozorining rivojlanish tendensiyalarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri 1 m² maydon uchun belgilangan narx hisoblanadi. Xonadonlarni takror ishlab chiqarish va boshqaruv xizmatlari tizimining tashqi ta'siri ostida aholining turmush sifati hamda foydalanish imkoniyatlari, shaharlashgan hududlarning iqtisodiy ma'lumotlar bazasi va shahar budjetining ichki holatiga ta'sir darajasi yuqori hisoblanadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda servis kompaniyalari faoliyatining kengayishi tannarxni aniqlash va boshqarish masalasini strategik ahamiyatga ega yo'nalishga aylantirdi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot, xizmatlar sifati, innovatsion texnologiyalar va mijozga yo'naltirilgan boshqaruv tizimlarining rivojlanishi servis korxonalarida xarajatlarni aniq hisoblash usullarini takomillashtirishni talab qilmoqda.

Shuningdek, uy-joylar qurilishi jarayonida kelgusida kommunal xizmatlarni yetkazib berish uskunalariga hisoblagichlarni o'rnatish, issiqlik energiyasini xona haroratiga moslashtirish hamda xonalarni isitish va sovitish uchun izolyatsiya qismlarini qurilish vaqtida o'rnatish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Kelajakda pudratchi tashkilotlardan uy-joylarni qabul qilib olish jarayonida o'rnatilgan kommunal uskunalar boshqaruv kompaniyalari tomonidan qo'shimcha servis xizmatlarini shakllantirishga xizmat qiladi hamda hisoblagichlarning limit normalarini belgilash imkonini beradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda servis kompaniyalari tannarxini aniqlashning bir qator dolzarb yo'nalishlari asoslab berilgan. Faoliyatga asoslangan tannarxni hisoblash tizimi — Activity-Based Costing (ABC) konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvning asoschilari hisoblangan Robert Kaplan va Robin Cooper servis korxonalarida bilvosita xarajatlarning ulushi yuqori ekanligini ilmiy asoslab bergan. Ularning fikriga ko'ra, an'anaviy tannarxni hisoblash usullari xizmat ko'rsatish jarayonidagi real xarajatlarni to'liq aks ettira olmaydi. Shu sababli, xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash korxonalar rentabelligini aniq baholash imkonini beradi.

Xizmatlar tannarxini aniqlashda vaqt omiliga asoslangan yondashuv ham muhim ilmiy yo'nalish sifatida shakllangan. Bu borada Robert Kaplan hamda Steven Anderson tomonidan ishlab chiqilgan Time-Driven Activity-Based Costing (TDABC) modeli servis jarayonlarida vaqt resurslarini asosiy tannarx omili sifatida baholaydi. Michael Porter raqamli transformatsiya sharoitida qiymat zanjiri tahlili orqali xarajatlarni optimallashtirish masalasini asoslagan. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, servis korxonalarida raqamlashtirish operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va tannarxni aniq prognoz qilish imkonini beradi. Bugungi kunda ERP, CRM va Big Data tizimlari servis xarajatlarini real vaqt rejimida monitoring qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Servis kompaniyalari tannarxini aniqlashda sifat xarajatlari (Cost of Quality) nazariyasi ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Philip Crosby va Joseph Juran xizmat sifati bilan bog'liq xarajatlarni tahlil qilish orqali korxonalar samaradorligini oshirish mumkinligini isbotlagan. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, xizmat sifati past bo'lishi qayta ishlash, kompensatsiya va mijozlarni yo'qotish bilan bog'liq xarajatlarni oshiradi. Bundan tashqari, John Shank strategik tannarx boshqaruvi konsepsiyasini ishlab chiqib, bozordagi raqobat, xizmat sifati va mijozlar ehtiyojlarini xarajatlar tizimi bilan integratsiyalash zarurligini asoslab bergan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda zamonaviy servis kompaniyalarida tannarxni aniqlashning dolzarb yo'nalishlari tizimli va qiyosiy tahlil metodlari asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil, xarajatlar tarkibini baholash hamda servis faoliyatida raqamli texnologiyalarning tannarx shakllanishiga ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va zamonaviy boshqaruv yondashuvlari asosida tannarxni optimallashtirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy boshqaruv xizmatlari va boshqaruv kompaniyalari faoliyatida tannarx ko'rsatkichlarining solishtirma tahlili muhim analitik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Bunday tahlil ishlab chiqarilayotgan yoki ko'rsatilayotgan xizmatlar bo'yicha resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash, xarajatlar tuzilmasidagi o'zgarishlarni baholash hamda boshqaruv qarorlarini iqtisodiy jihatdan asoslash imkonini beradi. Ayniqsa, xizmat sifati oshishi va xarajatlarning optimallashtirilishi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda solishtirma tahlilning o'rni beqiyosdir. Shu maqsadda tadqiqot ishida tannarx elementlari bo'yicha solishtirma ko'rsatkichlar keltirilib, ular orqali boshqaruv kompaniyalarining iqtisodiy samaradorligini taqqoslash imkoniyati yaratilgan.

Tahlil jarayonida modellarni amalga oshirish davlat va mahalliy organlarning mazkur sohadagi funksiyalarini bajarishda yuzaga keladigan muammolarni hal etishni o'z ichiga oladi. Soha mutaxassislari ushbu muammolarga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish jarayonida quyidagi ma'lumotlarni yig'ish va tartiblashtirishga asos yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Uy-joy fondida kommunal xizmatlar tarif tizimini joriy etish modeli

Mazkur tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi eng optimal modelni aniqlashdan iborat. Buning uchun ushbu jadvaldagi modellar o'rtasidagi farqning kelib chiqish sabablari hamda ular orasidagi tafovutlarni aniqlash muhim hisoblanadi. Unga ko'ra, 3 ta boshqaruv kompaniyasi faoliyati 3 xil model asosida tahlil qilinib, uy-joy boshqaruv xarajatlari uchun eng optimal model varianti taklif etildi (1-jadval).

1-jadval.

Boshqaruv kompaniyalari faoliyati tannarxining turli kalkulyatsiya modellar bo'yicha 2021-2025 yillardagi solishtirma tahlili. (ming so'm, 1 xizmat birligi uchun)¹

| Yil | “Euro Broker Group” MCHJ BSK | “MIRROR MANAGEMENT” MCHJ BSK | “SMART PROPERTY MANAGEMENT GROUP” MCHJ BSK |
|------|--------------------------------|------------------------------|--|
| | An'anaviy kalkulyatsiya modeli | ABC model | TD-ABC model |
| 2021 | 215 | 170 | 148 |
| 2022 | 223 | 176 | 153 |
| 2023 | 235 | 186 | 162 |
| 2024 | 242 | 192 | 167 |
| 2025 | 248 | 198 | 173 |

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, an'anaviy kalkulyatsiya modeli xizmat tannarxini nisbatan yuqori darajada shakllantiradi. Chunki bunda ma'muriy va umumiy xarajatlar real resurs iste'molini to'liq aks ettirmaydi. ABC (Activity-Based Costing) modelida xarajatlarning faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi natijasida tannarxni o'rtacha 13–15 % ga pasaytirish imkoniyati yuzaga keladi. Time-Driven ABC modelida vaqt omilining kiritilishi xizmat tannarxini yanada aniqroq belgilash imkonini beradi hamda an'anaviy modelga nisbatan 18–22 % gacha iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv kompaniyalarida tannarxni tahlil qilishda xizmat turlarini emas, balki tannarxni hisoblash modellarini solishtirish asosiy ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv strategik

1 Manba: boshqaruv servis kompaniyalarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyati ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli iqtisodiy asos yaratadi (2-jadval).

2-jadval

Boshqaruv servis kompaniyalar tannarxini hisoblashning 3 modeli solishtirma tahlili²

| T/r. | Model turlari | Xarajatlarni taqsimlash usuli |
|------|------------------------------|---|
| 1 | An'anaviy kalkulyatsiya | Barcha xarajatlar umumiy (masalan, xizmat hajmi) bo'yicha |
| 2 | ABC (Activity-Based Costing) | Faoliyat turlari orqali (qaysi xizmat qaysi faoliyatni qancha iste'mol qilishiga qarab) |
| 3 | Time-Driven TD-ABC | Faoliyat + vaqt me'yorlarini inobatga olgan holda |

2-jadval ma'lumotlari tahlili natijasida real resurs iste'moli qanchalik aniq hisobga olinsa, tannarx shunchalik past va aniq shakllanishi kuzatiladi. Bunda 2021–2025-yillar kesimida keltirilgan raqamlarning yildan yilga oshib borishi modelning xatoligi emas, balki iqtisodiy omillar ta'sirida yuz berayotgan jarayon ekanligini anglatadi. Bunga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

Ish haqining o'sishi (o'rtacha 12–15 %).

Elektr energiyasi va kommunal xarajatlarning oshishi.

Inflyatsiya darajasining o'zgarishi.

Boshqaruv xizmatlari sifatiga bo'lgan talabning ortishi.

An'anaviy kalkulyatsiya modeli xizmat tannarxini sun'iy ravishda oshirib ko'rsatadi. ABC modeli esa xarajatlarni aniqlashda muayyan ijobiy natija bersa-da, vaqt omilini to'liq hisobga olmasligi bilan cheklanadi. Time-Driven TD-ABC modeli esa resurs iste'molini vaqt normativlari orqali baholash asosida xizmat tannarxini eng aniq va iqtisodiy jihatdan asoslangan holda shakllantirish imkonini beradi. Bu esa zamonaviy boshqaruv kompaniyalari uchun eng optimal model sifatida namoyon bo'ladi.

Biz tomonimizdan shakllantirilgan boshqaruv servis kompaniyalarining tannarxi eng "og'ir" ssenariy asosida shakllantirildi va bunda kalkulyatsiya modellarining farqi yaqqol namoyon bo'ladi. Odatda maksimal xarajatli muhit tanlanadi hamda model samaradorligi aynan shu hududda sinovdan o'tkaziladi. Bunday holatda Toshkent shahri urban servis muhiti uchun empirik model sifatida qaraladi.

O'zbekiston sharoiti amaliyotida boshqaruv servis kompaniyalarida ABC modeli va Time-Driven TD-ABC modellarini qo'llash quyidagi natijalarni beradi (3-jadval):

Xarajat tariflarini iqtisodiy jihatdan asoslash imkoniyati yaratiladi.

Davlat tomonidan subsidiyalarni maqsadli ajratish imkonini beradi.

Boshqaruv servis kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

"Yashil iqtisodiyot" tamoyillariga mos resurs tejamkorligini amalga oshirishda amaliy natija beradi.

3-jadval

Boshqaruv servis kompaniyalar modellarining xarajatlar kalkulyatsiyasi va iqtisodiy samarasi bo'yicha taqqoslama tahlili³

| T/r. | Taqqoslama mezonlari | An'anaviy kalkulyatsiya modeli | ABC modeli (faoliyatga asoslangan) | Time-Driven TD-ABC modeli (vaqt omiliga asoslangan) |
|------|--|--|--|---|
| 1 | Xarajatlar taqsimoti | Umumiy xarajatlar hajmi, ish haqi yoki xizmat hajmiga qarab (qimmat) | Aniq faoliyat turlariga (operatsiyalar) qarab, qimmat | Faoliyatlarni bajarishga sarflangan vaqt, arzon |
| 2 | Boshqaruv jarayoni xarajatlarini hisobga olish | Umumiy xarajat tarkibida yo'qolib ketadi | Boshqaruv faoliyati alohida aktiv sifatida hisoblanadi | Boshqaruv qarorlari uchun sarflangan vaqt aniq o'lchanadi |
| 3 | Ortiqcha xarajatlarni aniqlash darajasi | Past-yashirin xarajatlar saqlanib qoladi | Yuqori-faoliyat kesimida ochib beradi | Juda yuqori-daqiqa va soat kesimida |
| 4 | Boshqaruv samaradorligiga ta'siri | Kam-qarorlar intuitiv xarakterda | O'rtacha-ma'lumotlarga asoslangan | Yuqori-real vaqt ma'lumotlari asosida |

2 Manba: muallif tomonidan ishlangan.

3 Manba: muallif tomonidan ishlangan.



| | | | | |
|----|--|--|--|--|
| 5 | Boshqaruv xizmat tannarxiga ta'siri | Tannarx sun'iy ravishda oshadi | Tannarx 8-12% gacha kamayadi. | Tannarx 12-18% gacha kamayadi. |
| 6 | Iqtisodiy samarasi | Samara past, resurs yo'qotishlar yuqori. | Foyda marjasi +5-7 %li punktga oshadi. | Foyda marjasi 88-12%li punktga oshadi. |
| 7 | Mahalliy boshqaruv servis kompaniyalar uchun qo'llash imkoniyati | Qisqa muddatli, eski tizim | Amaliy jihatdan maqbul | Istiqbolli, raqamli islohotlarga mos |
| 8 | Strategik boshqaruv uchun ahamiyati | Cheklangan | Yuqori | Juda yuqori |
| 9 | Avtomatlashtirish | Murakkab | Murakkab | Oson |
| 10 | Moslashuvchanlik | Past | Past | Yuqori |

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlillar natijasida boshqaruv servis kompaniyalari faoliyatida tannarxni aniqlashning eng optimal modelini qo'llashning iqtisodiy samarasi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

An'anaviy kalkulyatsiya modeli boshqaruv servis kompaniyalarida ortiqcha ma'muriy xarajatlarni aniqlash imkonini bermaydi. Natijada boshqaruv jarayonida tannarx sun'iy ravishda oshadi.

ABC modeli boshqaruv jarayonlarini mustaqil faoliyat sifatida ajratib, qiymat yaratmaydigan operatsiyalarni qisqartirish orqali xizmatlar tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi.

Time-Driven TD-ABC modeli vaqt omilini asosiy resurs sifatida baholab, boshqaruv qarorlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash imkonini beradi. O'zbekiston sharoitida mazkur modelni qo'llash raqamlashtirish jarayonlari, elektron raqamli boshqaruv hamda kommunal va xizmat ko'rsatish sohasidagi islohotlar bilan uyg'un holda yuqori iqtisodiy samara beradi. Time-Driven TD-ABC modelini joriy etish orqali boshqaruv xarajatlarini 18 % gacha, umumiy xizmat tannarxini esa 12–15 % gacha kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni inobatga olib, quyidagi 4-jadvalda biz tomonimizdan hududlar miqyosida boshqaruv kompaniyalari xarajatlari tannarxining asosiy farqlanish omillarini keltirish maqsadga muvofiq deb topildi (4-jadval).

4-jadval

Hududlar bo'yicha boshqaruv servis kompaniyalar tannarx tafovuti ⁴

| t/r. | Omillar | Toshkent shahar | Viloyat markazlari | Qishloq hududlari |
|------|---------------------------|-----------------|--------------------|-------------------|
| 1 | Ish haqi | Yuqori | O'rtacha | Past |
| 2 | Energiya resurslari sarfi | Yuqori | O'rtacha | Past |
| 3 | Ma'muriy xarajatlar | Katta | O'rtacha | Kichik |
| 4 | Xizmat standartlari | Yuqori | O'rtacha | Minimal |
| 5 | Amortizatsiya xarajatlari | Yuqori | O'rtacha | Past |

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur usulning tadqiqot ishimizda ilmiy jihatdan asoslanganligi hududiy farqlarni to'liq aks ettiradi. Ushbu usul modulli va universal hisoblanib, hududiy xarajatlar tannarxini rejalashtirish hamda tariflarni belgilashda to'liq asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida olib borilgan hisob-kitob va analitik tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshqaruv servis kompaniyalarida xizmat tannarxi darajasi hududiy iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda farq qilsa-da, tannarxni hisoblashda qo'llaniladigan modelning samaradorligi hududdan qat'i nazar saqlanib qoladi. TD-ABC modeli vaqt omili va resurslar quvvatiga asoslangan holda tannarxni shakllantirish imkonini beradi. Hududiy koeffitsiyentlardan foydalanish esa mazkur modelni respublika miqyosida universal tarzda qo'llash imkonini ta'minlaydi. Shu bois, TD-ABC modeli zamonaviy boshqaruv servis kompaniyalari uchun eng optimal kalkulyatsiya usuli sifatida baholandi.

4 Manba: O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi <https://gov.uz/oz/mc> rasmiy sayti ma'lumotlari hisoboti asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur TD-ABC modeli tannarxni hisoblashning zamonaviy metodlaridan biri bo'lib, vaqt omilini inobatga olgan holda xarajatlar taqsimotini soddalashtiradi. Uning asosiy xususiyati faoliyat tannarxini real vaqt asosida hisoblashdan iborat.

Modelning metodologik afzalligi shundaki, uning matematik modelining soddaligi, real vaqt rejimida o'zgartirish imkoniyatining mavjudligi, kichik va yirik boshqaruv kompaniyalari masshtabiga mos ravishda samarali ishlashi, ma'lumotlarni to'plash jarayonining qulayligi hamda zamonaviy IT tizimlarini integratsiya qilishning osonligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, vaqt o'lchov sensorlari bilan to'g'ridan to'g'ri integratsiyalash imkoniyati, real vaqt rejimida operativ monitoring olib borish hamda vaqt parametrlari asosida prognozlash imkoniyati ushbu modelning muhim ustunliklari hisoblanadi.

Iqtisodiy afzalliklari shundan iboratki, xarajatlar tannarxini hisoblashda an'anaviy model va ABC modeliga nisbatan xizmat birligi qiymati 40–60 % gacha arzonlashadi. Quyidagi 5-jadvalda TD-ABC modelining zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvi tannarxini shakllantirishdagi asosiy afzalliklari keltirilgan (5-jadval).

5-jadval

Zamonaviy uy-joy fondi boshqaruvi tannarxlarni shakllantirishda TD-ABC modelining afzalliklari⁵

| T/r. | Ko'rsatkichlar | Afzalliklari |
|------|-------------------------|---|
| 1 | Iqtisodiy samaradorlik | Arzon va yuqori rentabellik darajasi |
| 2 | Texnologik integratsiya | Zamonaviy tizimlar bilan oson integratsiya qilish |
| 3 | Operativligi | Tezkor qabul qilish imkoniyati |
| 4 | Moslashuvchanlik | Bozor sharoitlariga tez moslashuv |

Modelni qo'llash orqali samaradorlikni oshirish imkoniyatlari, jumladan, resurslardan optimal foydalanish, resurslarni samarali taqsimlash hamda katta hajmdagi ma'lumotlarga asoslangan strategik va aniq qarorlar qabul qilish imkoniyati yuqori hisoblanadi. Shuningdek, boshqaruv jarayonida strategik rejalashtirish ssenariylarini tezkor tahlil qilish, samarasiz faoliyatlarni aniqlash va ularni optimallashtirish imkoniyati ham yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Robert S. Kaplan, Robin Cooper. *Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance*. Boston: Harvard Business School Press, 1998.
2. John K. Shank, Vijay Govindarajan. *Strategic Cost Management: The New Tool for Competitive Advantage*. New York: Free Press, 1993.
3. Charles T. Horngren, Srikant M. Datar, Madhav V. Rajan. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 15th ed. Pearson Education, 2015.
4. Edward J. Blocher, David E. Stout, Paul E. Juras. *Cost Management: A Strategic Emphasis*. New York: McGraw-Hill Education, 2019.
5. D.A. Berdiyeva. "Uy-joy fondi boshqaruvi samarali tashkil etish." *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot* elektron jurnali, 2023-yil, 10-son, 460–465-betlar. ISSN: 2992-8982.
6. Mohammad Mahdi Rounaghi, Hajer Jarrar, Leo-Paul Dana. "Implementation of Strategic Cost Management in Manufacturing Companies: Overcoming Costs Stickiness and Increasing Corporate Sustainability." *Future Business Journal*, vol. 7, no. 31, 2021. DOI: 10.1186/s43093-021-00079-4.
7. Alessandro Margherita, Emanuele Banchi. "Beyond Total Cost Management (TCM) to Systemic Value Management (SVM): Transformational Trends and a Research Manifesto for an Evolving Discipline." *Sustainability*, vol. 14, no. 19, 2022. DOI: 10.3390/su141912890.

5 Manba: muallif tomonidan ishlangan.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100